

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14429477>

SHAROF BOSHBEKOVNING "TEMIR XOTIN" KOMEDIYASIDAGI IJTIMOIY MASALALAR

Yarashova Mavluda Toxir qizi

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tulishova Gulzina Ravshanovna**

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada iste’dodli dramaturg, yozuvchi Sharof Boshbekov qalamiga mansub bo‘lgan "Temir xotin" komediyasidagi ijtimoiy muammolar, oilaviy kelishmovchiliklarning sabab va oqibatlari, inson qadri, o‘zbek ayollarining matonati haqidagi g‘oyalar ilgari surilgan, shuningdek, syujet va komediyadagi voqelik ham yoritilgan.

***Kalit so‘zlar:** "Alomat", robot, Qo‘chqor, Olimjon, paxta terish, o‘zbek ayollari, komediya.*

ABSTRACT

In this article, ideas about social problems, causes and consequences of family disagreements, human value, and the tenacity of Uzbek women in the comedy "The Iron Woman" written by the talented playwright Sharaf Boshbekov are presented.

***Key words:** "Alomat", robot, Kochkor, Olimjon, cotton picking, Uzbek women, comedy.*

Kirish

Sharof Boshbekov 1951-yilning 4-yanvarida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida tug‘ilgan va bir qancha asarlarning muallifi hisoblanadi. Sharof Boshbekov haqiqatni haqqoniy aytadigan, hayotning murakkab jihatlarini o‘ta zukkolik bilan ko‘ra oladigan, g‘ururi, oriyati baland, dovyurak adib. Uning yozganlari yuqori lavozimdagi

ayrim insonlarga har doim ham yoqavermaydi shekilli, hayotida ko'p bora turli taqiqlarga uchraydi. 90-yillarda barcha spektakllari teatrlardan olib tashlangan, hattoki "Temir xotin"

komediyasiga ham taqiq qo'yilgan. Yaqin yillarda televideniyaning "qora ro'yxat"iga ham kiritildi. Lekin qiyinchiliklar, nohaqliklar irodasini buk olmadi. Insult degan kasallikni boshidan kechirgan bo'lsada, ijodda davom etdi. Dramaturgning "Temir xotin" dramasi butun o'zbek xalqi yaxshi biladi. O'tgan asrning 80-yillarida yaratilgan, o'z vaqtida shov-shuv bo'lgan, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan bu asar hozirgacha sevib o'qiladi. Asar asosida tasvirga olingan film miriqib tomosha qilinadi. Uning bu qadar mashhurlashishi va milliy dramamizning gultoji darajasiga ko'tarilishining sababi esa asar zamirida yotadigan millat fojiasi, alamli og'riqlarining aks etishidir.

Dramaning syujetiga to'xtaladigan bo'lsak, asarning boshlanish qismida Qo'chqorning uyi tasviri keltirilgan bo'lib, yozuvchi ideal tarzda ma'lum bir detallarni aks ettirgan holda haqiqiy o'zbek xonadonini tasvirlagan. Qo'chqorvoy asarning bosh qahramoni bo'lib, traktorchilik kasbi bilan shug'ullanadi. Uning aybi esa ko'p ichishidir. Kunora ichadi va to'polon ko'taradi. Bu holat xotining ham joniga tegib bir nechta hamqishloqlari bilan birgalikda Qo'chqorning mastlik holatida daraxtga bog'lab qo'yish darajasigacha yetib boradi. Asar voqealari aynan shu yerdan boshlanadi. Erining bunday qiliqlaridan bezor bo'lgan xotini ketsam o'zgarar, degan xayolda bolalarini ota uyiga olib ketib qoladi. Bu orada Olimtoy ismli olim jiyani kelib qoladi. U 7 yil davomida ixtirosi ustida ishlab, robot, robot bo'lgandayam ayol ko'rinishidagi robotni yaratadi. Bu kashfiyotini sinovdan o'tkazish maqsadida qishloqqa, Qo'chqorvoyning uyiga olib keladi. Bu robotdan paxta terish mashinasi o'rni foydalanish ko'zlangan edi. Orada ko'p hangomalar bo'lib o'tadi. Olimtoy har qancha tushuntirishga harakat qilmasin, Qo'chqorvoy robotning robotligiga mohiyatan hech tushunolmaydi.

Shuning uchun bu temirga uylanmoqchi bo'ladi, hatto nikoh ham o'qitadi. Alomatxon ismli robot bir muddat Qo'chqorvoyning uyida "xotin"lik vazifalarini bajarib yuradi:

supur-sidir, pishir-kuydir, mol-qo‘yga qarash, kir-chirni yuvish kabi. Nihoyat, sinovga olib chiqilgach, ya’ni paxta maydoniga borib paxta tergach, Alomatxon tutab ketadi va butunlay ishdan chiqadi. Robot bilan bir muddat yashagan Qo‘chqorvoy bu orada ko‘p narsaga tushunib yetadi va oz bo‘lsa-da o‘zgaradi. Xotini ham qaytib keladi va ilgarigidek yashab ketishadi. Asarning qisqacha syujeti shu bo‘lib, katta ahamiyatga ega bo‘lgan va mohiyati ulkan bo‘lgan asar hisoblanadi. Drama shunchaki komedik hodisalar voqeligi emas, balki "jiddiy komedik" asar hisoblanadi. Muallif go‘yoki: "Maqsadim kuldirish emas, kulgi- o‘tkir muammolarga diqqatingizni tortish vositasi, xolos",- degandek tuyuladi. Asarda sovet davridagi paxta siyosati tasvirlangan bo‘lib, ayollarning barchasi uyda o‘tirib, bolani va ro‘zg‘orni eplash o‘rniga ertalabdan kechgacha dalada mehnat qilishlari, kechasi daladan qaytib uy ishlarini ham qilishganini, pardoz-andozga-ku umuman vaqt yo‘qligino ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Robot esa tirik jon ayollarning qiladigan ishini chorak qismini qilib, bor yo‘g‘i dalada ishlab portlab ketadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, shu temir 1 ta oddiy ayolning yarim ishiga bardosh berolmaydi. Bularning barchasi achchiq haqiqat hisoblanadi.

Xulosa

Asarning kulminatsiya qismi Alomatxonning Qo‘chqorvoyni gipnoz qilish jarayoni hisoblanadi. Mana shu dialog zamirida o‘zbek ayolining haqiqiy xarakteri, jafokashligi ko‘rinadi. Shuncha yumush, shuncha tashvishni birgina nozik xilqat, nihol qomat egasi bo‘lmish ayol qiladi, ya’ni o‘zbek ayoli. Qaysi millatda o‘ntadan ko‘p tug‘gan ayollar ko‘pligini eshitgansiz? Qaysi millat zaifalari shuncha ishni “g‘iq” demay bajaradi? Ayolni zaifa deymiz-u, lekin unga shuncha mashaqqat yuklaymiz. O‘zbek ayoli shuncha yumushdan ortib, erining o‘dag‘aylashini, qaynonasining g‘imir-simirini, bolasining g‘ingshishini, qo‘shnilarining pichir-pichirini ko‘tarishi kerak. Shunday katta, metin iroda sohibasi ayol. Agar ozgina noligudek bo‘lsa noshukrga chiqadi, haqqini talab qilaman desa, “tili chiqib qolgan” bo‘ladi. Ortiqcha dam olgudek bo‘lsa “tanbal kelin” degan nom oladi. Unda ham ko‘ngil borligi, asablari charchashi, jismi zaiflashishi, kayfiyatsiz bo‘lishi hisobga olinmaydi. Hatto temir yaramay, tutab ketgan mehnatlarga o‘zbek ayoli yonmasligi, doim xizmatga shay, “labbay” deb turishi, har

hunarni qoyillatishi, yegan nonini oqlab qo'yishi, qo'ydek yuvosh bo'lishi kerak. Bunday onadan qanday farzandlar yetishib chiqishi mumkin, deb o'ylaysiz? Albatta, yuvoshgina, nima deyilsa, "xo'p" deydigan, noroziligini bildirishga botinmaydigan, hayotidan nolimaydigan, ammo kun ko'rmaydigan Qo'chqorlar yetishib chiqadi. Biz ayollarimizni qadrlamas, ularning zaifligini hisobga olmas, yelkasidagi yukni ko'tarishiga yordam bermas va ma'nan qo'llamas ekanmiz, kelajagimiz buyuk bo'lishiga umid ham qilmasak bo'laveradi. Farzandlarimiz qachon bizdan ko'ra baxtli bo'la oladi, qachonki ayollarimiz baxtli bo'lsa. Bola onasining ko'zida so'ngsiz charchoq, mungni emas, baxtni, kelajakka umidni ko'rsagina o'zini baxtli his qiladi. "Temir xotin" komediyasi nafaqat respublikamiz, balki boshqa mamlakatlar teatrlarida ham sahnaga qo'yildi. Unda muallif fan-texnika rivoji davrida inson ongi, dunyoqarashi, faoliyatida sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar, jamiyatdagi teran muammolarni hajviy yo'sinda ochib beradi. Mazkur asar asosida tasvirga olingan badiiy film ham xalqimizga manzur bo'ldi.

Adabiyotlar

1. D.H.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Noshir nashri T:2019.
2. <https://kun.uz/news/2023/03/31/tragediyani-aks-ettirgan-komediya-temir-xotin-asari-haqida>